

MAMLAKATIMIZDA AYOLLAR HUQUQLARINI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN HUQUQIY ISLOHOTLARNING TAHLILI VA XOTIN-QIZLARGA NISABAT ZO'RAVONLIKLARNI OLDINI OLISH.

Mo'minova Ominaxon Abdug' afur qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti

Annotatsiya: *Ushbu maqola so'nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan xotin-qizlarning huquqlarini va erkinliklarini ta'minlash, ularning jamiyatda tutgan o'rni va mavqei mustahkamlashga qaratilgan huquqiy islohotlarning tahliliga bag'ishlanadi. Maqolada hozirgi davr nuqtayi nazaridan juda ham dolzarb bo'lgan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega yo'nalishlardan biri xotin-qizlarga bo'lgan zo'ravonliklarni kamaytirish va bu borada amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar hamda ular bilan bo'g'liq muammolar ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari, ushbu maqolada xotin-qizlar uchun ijtimoiy-siyosiy sohada ta'lim, davlat boshqaruvi va iqtisodiyot kabi sohalarda teng huquqiy imkoniyatlar yaratish uchun olib borilayotgan chora-tadbirlar haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan. Shuningdek, yuqorida sanab o'tilgan tizimlarda erishilgan ijobiy natijalar bilan bir qatorda, haligacha amaliyotda uchrayotgan ayrim kamchiliklar va ularga yechim sifatida ilmiy asoslangan taklif va mulohazalar keltirib o'tilgan hamda so'ngi paytlarda mamlakatimizda qabul qilingan ayrim qonunlar jumladan O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi shuningdek, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqiy imkoniyatlar to'g'risida"gi qonunlarning ahamiyati, ularning jamiyat hayotiga ta'siri va xotin-qizlarning huquq va erkinliklar shuningdek, qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda tutgan o'rni tahlil etilgan. Bundan tashqari, yuqorida sanab o'tilgan qonunlar orqali xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish va ularga ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa jarayonlarda faol ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish maqsadida mustahkam huquqiy asos yaratilganligi ko'rsatib o'tilgan.*

Kalitso'zlar:

xotin-qizlar, zo'ravonlik, huquq, huquqiy islohotlar, muammolar, amaliyot, qonunlar.

"Meni kishilarimizning ongida paydo bo'lgan stereotip ko'p o'ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo'rg'onining qo'riqchisi sifatida hurmat qilamiz.

Bu, shubhasiz, to'g'ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerak".

Shavkat Mirziyoyev,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Kirish qism

Hozirgi davrga kelib inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash global kun tartibining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va bu borada ayollarning huquqlar, ularning jamiyatda tutgan o'рни hamda mavqeini mustahkamlash, xotin-qizlar uchun ta'lim, sog'liqni saqlash, davlat boshqaruvi, ijtimoiy-siyosiy va boshqa sohalarda faol ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlar yaratish maqsadida yurtimizda ko'plab islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. So'nggi yillarda xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularni turli xil zo'ravonliklardan asrash hamda ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli chora -tadbirlar amalga oshirilayotgani bejiz emas. Chunki xotin-qizlar jamiyatni ma'naviy jihatdan yuksaltirish hamda davlatimizni kelajagi bo'lmish yosh avlodni dunyoga keltirish va tarbiyalashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ko'plab huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda jumladan, O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" gi va "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqiy imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi qonunlar qabul qilindi hamda amaliyotga tadbiriq etildi. Yuqorida nomlarini keltirilgan qonunlar nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega, aynan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" gi qonunda "tazyiq" va "zo'ravonlik" tushunchalariga huquqiy ta'rif berib o'tilgan hamda zo'ravonlikning turlari bo'lmish jismoniy, ruhiy, iqtisodiy va boshqa shakllarini aniq belgilab berdi va jazo choralarini kuchaytirilganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, qonun zo'ravonlik qurbonlarini nafaqat huquqiy, balki psixologik va ijtimoiy reabilitatsiya qilish choralarini ham nazarda tutganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ayollarni ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish ularning ta'lim olishini, mehnat va davlat boshqaruvi sohasida ishtirokini ta'minlash orqali jamiyatimizni yanada rivojlantirish imkoni paydo bo'ladi. Bu borada, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqiy imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi qonun mamlakatimizda gender tenglikni taminlashga qaratilgan yaxlit va asosiy qonun hujjati bo'lib, unda ilk bor milly qonunchiligimizda "gender" tushunchasiga ta'rif berildi. Bunda, xotin-qizlar iqtisodiy-ijtimoiy, mehnat, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa sohalarda erkaklar bilan bir xil huquqlarga ega bo'lib, bir xil imkoniyatlardan foydalanadi. Shuningdek, jinsiga qarab ushbu munosabatlarda bevosita va bilvosita kamsitishning har qanday turiga yo'l qo'yilmaydi va cheklanadi. Yuqorida sanab o'tilganlardan ma'lumki, xotin-qizlarga nisabatan zo'ravonliklarni oldini olish, ularga ijtimoiy-iqtisodiy, ta'lim, mehnat va boshqa sohalarda faolligini oshirish uchun ko'plab chora tadbirlar amalga oshirilib, bu borada kamsitishning yoki zo'ravonlikning har qanday turini bartaraf etish maqsadida qonun hujjatlari qabul qilinib amaliyotga tadbiriq etish orqali ko'plab ijobiy natijalarga erishilgan bo'lsa ham amaliyotda ayrim bartaraf etilmagan muammolar mavjudligini ko'rish mumkin. Shu sababli ushbu maqolada hali o'z yechimini topmagan

muammolarga ham to'xtalib o'tib ularni bartaraf etish uchun ayrim taklif hamda mulohazalar keltirib o'tilgan.

Asosiy qism

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda inson huquq va erkinliklari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish eng muhim funksiyalardan biriga aylanib bormoqda. Natijada, oilaga va ayollarimizga bo'lgan munosabatimiz tobora yuksalib, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish yanada yaxshilanmoqda. Hozirgi kunda, O'zbekiston ayollarining jamiyatdagi o'rni tobora yaxshilanib, xotin-qizlar deyarli barcha sohalarda yaxshi natijalar qayd etmoqda. Bu eng avvalo davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan yaratilgan qonunchilik hujjatlari hamda tizimda olib borilayotgan boshqa huquqiy o'zgarishlar natijasi desak yanglishmagan bo'lamiz. Ya'ni, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan

150 nafar deputatning 48 nafari yoki 32 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Senatda bu ko'rsatkich deyarli 25 foizni ko'rsatadi. Mahalliy Kengashlar deputatlarining 31 foizi esa fidokor, jonkuyar ayollarimiz tashkil etadi. Ana shunday natijalar tufayli O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, milliy parlamentimiz ayol deputatlar va senatorlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o'rtasida 37-pog'onaga ko'tarildi.

Shuningdek, boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi - 27 foizga, siyosiy partiyalarda - 44 foizga, oliy ta'lim tizimida - 40 foizga, tadbirkorlik sohasida esa 35 foizga yetgani fikrimizning asosidir. Siyosat va boshqaruvdagi bu kabi ijobiy o'zgarishkarni huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqiy imkoniyatlar to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi ham juda katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Aynan ushbu qonun orqali mehnat sohasida yoki davlat boshqaruvi, siyosat, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda ayollarning o'rni hamda roli mustahkamlab berildi. Shuningdek, ijtimoiy hayotda xotin-qizlarning huquq, erkinliklarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini bevisita va bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmasligi va bu borada diskriminatsiyaga yo'l qo'yilmasligi, har bir sohada ayollar erkaklar bilan bir xil imkoniyatlarga ega bo'lganini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, demokratik huquqiy jamiyatning muhim belgilaridan biri erkak va ayollarning teng huquqliligini ta'minlash hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqiy imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunni qabul qilish orqali O'zbekiston xalqaro maydonda nufuzini yanada mustahkamlashi uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qildi, chunki dunyodagi eng rivojlangan va demokratik davlatlarda inson, uning huquq va erkinliklari hurmat qilinadi va himoya qilish mexanizimi ham yuqori darajani ko'rsatadi. Shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilgan huquqiy islohotlarning natijasida erishilgan ijobiy ko'rsatgichlardan biri sifatida, Jahon bankining "Ayollar, biznes va qonun" indeksida O'zbekiston 2020

yilda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo'yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritilgani va 5 pog'onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 134-o'rinni egallaganini ko'rsatish mumkin. Shu bilan bir qatorda, xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish ham davlat olida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki, jamiyatning rivojlanishi uchun poydevor va davlatning ertangi kelajagi bo'lmish yosh avlodni dunyoga keltirish hamda ularni tarbiyalashda ayollarimizning o'rni nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun ham ayollarni zo'ravonlikning har qanday ko'rinishidan himoya qilish, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan bir qatorda, ularni ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy, mehnat, ta'lim va boshqa sohalarida faol ishtirok etishga jalb qilish davlat siyosatining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda mamlakatimizda qabul qilingan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ushbu qonun zo'ravonlikni tushunchasini huquqiy jihatdan baholab, jismoniy, ruhiy, jinsiy, iqtisodiy va boshqa tazyiqlarni huquqbuzarlik sifatida qayd etib, ularning har biriga nisbatan javobgarlik va jazo tizimini belgilab berdi. Mamlakatimizda o'tkazilgan huquqiy islohotlar natijasida ko'plab ijobiy natijalarga erishildi. SHunga qaramasdan amaliyotda ayrim muammolar haligacha uchrab turibdi. Shubhasiz, barcha qonunlarimiz tenglikka asoslangan lekin, biz zo'ravonlikka nisbatan o'ta sabrli ekanimiz bevosita aholining huquqiy ongi va tafakkuriga bog'liq. O'zbek xalqining mentalitetida shunday narsa shakllanganki, oiladagi muammo oilada qoladi, uni tashqariga olib chiqish mumkin emas. Ko'p vaziyatlarda xotin-qizlarda nisbatan zo'ravonlik holati kuzatilsa, bu sharmandali holatni qarindoshlar, qo'shnilar yoki boshqa insonlar bilib qoli shidan qo'rqib sir tutiladi. Vaholanki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi ayollarning taxminan 70 foizi hayoti davomida zo'ravonlikni boshdan kechirgan. Shubhasiz, bu juda yuqori ko'rsatgich hisoblanadi. Shu sababli ham davlatimizda qabul qilingan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun olamshumul ahamiyat kasb etdi. Bunda zo'ravonlik o'zi nima ekanligiga to'xtalib o'tish zarur, Yevropa Kengashining Istanbul

konvensiyasi (Yevropa Kengashining ayollarga nisbatan hamda oilalardagi zoriavonlik holatlarining oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiyasi) „ ANZ“ni "inson huquqlarining buzilishi va ayollarga nisbatan kamsitishning bir shakli" sifatida tavsiflaydi hamda uning ta'rifini "xotin-qizlarga jismoniy, jinsiy, psixologik hamda iqtisodiy zarar yoki azob-uqubatlarga olib keladigan, genderga asoslangan zo'ravonlikning barcha harakatlari, shu jumladan, jamoat yoki shaxsiy hayotda sodir bo'lgan qat'i nazar, bunday harakatlarni bi'an tahdid qilish, majburiylik yoki o'z boshimclilik bi'an ozodlikdan mahrum qilish holati", deya izohlaydi. O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" qonunda ham zo'ravonlikning iqtisodiy, jinsiy, psixologik va jismoniy turlari qayd etilgan. Ularning har biriga

to'xtalib o'tish zarur, Jismoniy zo'ravonlik - bu jabrlanuvchiga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'sir o'tkazish, jismoniy zarar yetkazish maqsadida, kaltaklash, tan jarohati yetkazish, tanaga og'ir shikast yetkazish, kaltaklash, turtish, tepish, tarsaki ko'rinishida bo'ladi. Jinsiy zo'ravonlik - bu odam o'z xohishlariga qarshi jinsiy aloqada bo'lishga majbur qilish, tahdid qilish yoki aldangan paytdagi zo'ravonlik harakati. Psixologik zo'ravonlik - inson psixikasiga zarar yetkazish, haqorat qilish, qo'rqitish, tahdid qilish, shantaj qilish, nazorat qilishdir. Aynan "Xotin -qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunni qabul qilish orqali zo'ravonlikning har bir turi aniq belgilanib, uni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi lozim bo'lgan barcha huquqiy ta'sir choralari belgilanib, amaliyotga tadbiq etildi. Qonunning qabul qilinishi, zo'ravonlikni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan huquqiy ta'sir choralari belgilab berilgani va hayotga tadbiq etilganiga qaramasdan, davlatning viloyatlar kesimida kelib tushgan zo'ravonlik bo'yicha murojaatlarni qoniqarli deb bo'lmaydi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligining 2021-yil yanvar-mart oylari bo'yicha ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini o'rganish borasida olib borgan tahlil natijalari

Xotin-qizlarga nisbatan jinoyatchilik va huquqbuzarlik bo'yicha murojaat turlariga qarab tushgan ma'lumotlar (2021-yil, yanvar-mart): Ruhiy zo'ravonlik (47%), Jismoniy zo'ravonlik (34%), Tazyiq (17%), Iqtisodiy zo'ravonlik (1.5%), Jinsiy zo'ravonlik (0.5%)ni tashkil etadi. Bundan ko'rinish turibdiki, qonunni qabul qilib, uni hayotga tadbiq etishning o'zi zo'ravonlikka butunlay barham berish va kutilgan natijaga erishish uchun yetarli emasligini ko'rsatadi. Shu o'rinda, amaliyotda uchrab turgan kamchiliklarga nazar tashlashimiz zarur. Ehtimol, davlatning markaziy hududlarida qonunning qabul qilinishidan kutilgan natijaga ertaroq erishish mumkin, lekin ayrim chekka hududlarda ayniqsa qishloq joylarda xotin-qizlar zo'ravonlikka sabrli munosabatda bo'lishadi. Ya'ni, oilasi va farzandlarini o'ylab, qarindoshlar yoki qo'ni -qo'shilarining munosabatidan kelib chiqib oiladagi zo'ravonlikka ko'z yumib kelishadi. Buning natijasida esa, zo'ravonlikning miqdori kamayish o'rniga yanada kuchayib boradi. Shu o'rinda aholi orasida ayniqsa qishloq hududlarda keng targ'ibot ishlarini olib borish hamda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish muhim o'rin tutadi. Sababi, ayrim xotin-qizlar zo'ravonlikka uchraganda yoki huquq va erkinliklari cheklanganda hattoki qayerga murojaat qilishni ham bilishmaydi va bu hozirga davr nuqtai-nazaridan qaraganda judayam achinarli holat hisoblanadi. Shuning uchun ham joylarda targ'ibot ishlarini olib borish orqali xotin-qizlarda huquqiy ongi va madaniyatni shakllantirish zarur. Bunda, qo'shimcha tarzda Zo'ravonlik va tazyiqqa duch kelganlar 1146 ishonch telefoniga murojaat qilishi mumkinligi haqida ham xabardor qilinishi zarur. Chunki, zo'ravonlik -bu faqatgina shaxsiy muammo emas, balki butun jamiyatning tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'luvchi illatdir. Millatning qudratli bo'lishida ayollarning o'рни judayam muhim hisoblanadi. Sababi, yurt taraqqiyoti, sivilizatsiya rivoji asosan xotin-qizlarga

bog'liq. Shubhasiz, ko'plab davlatlarni erkaklar boshqaradi yoki, rahbarlik lavozimlarida ham ayollarga nisbatan erkaklar soni ancha ko'proq. Ammo, har qanday erkakni shakillantiradigan zot bu ayol, ona hisoblanadi. Ona qanday bo'lsa, tarbiya natijasi ham shunday bo'ladi. Ya'ni, ilimli, madaniyatli hamda dunyoqarashi keng bo'lgan onaning farzandi ham huddi shunday bo'ladi. Shu sababli ham yurt rivoji, mamlakat taraqqiyoti aksariyat hollarda ayollarga bog'liq, sababi jamiyatning rivojlanishi, davlatning ertangi kelajagi bo'lmish yoshlarni tarbiyalashda ayollarning hissasi beqiyosdir. Ayrim insonlarda shunday dunyoqarash shakllangan, ya'ni ayollarning o'рни oshxonada, uyda, farzandini tarbiya qilsa yetarli. Lekin, ilmi, madaniyatli hamda dunyoqarashi keng farzandlarni dunyoga keltirish va tarbiya qilish uchun ayolni o'zi ham huddi shu fazilatlarga ega bo'lishi lozim. Shu sababli ham, so'ngi yillarda yurtimizda huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda va bu davr talabi ham hisoblanadi. Islohotlar ichida eng ahamiyatga molik bo'lgani bu O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqiy imkoniyatlar to'g'risida"gi qonunni qabul qilinishidir. Aynan ushbu qonun orqali davlatimizda ayollarning jamiyatdagi o'рни hamda nufuzi mustahkamlandi. Ularga ijtimoiy-iqtisodiy, ta'lim, sog'liqni saqlash, siyosiy va boshqa sohalarda faol ishtirok etishi uchun jalb qilinmoqda. Agar ayol kishiga imkon berilsa, u har qanday sohada o'z o'rnini topa oladi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqadigan bo'lsak, xotin-qizlar jamiyatning asosiy poydevori, aynan ular orqali davlatning yetuk, ilimli hamda dunyoqarashi keng yoshlar tarbiyalanib, voyaga yetadi. SHuning uchun ham, xotin-qizlarni ijtimoiy hayotda nufuzini oshirish va zo'rvonlikdan himoya qilish uchun davlat tomonidan islohotlar hayotga tadbiq etilib uning natijasida ayollarimizning davlat boshqaruvi, siyosat sohasida yoki ta'lim kabi ko'plab sohalarda faolligi kun sayin oshib bormoqda va ko'plab ijobiy natijalarga erishilmoqda. SHuningdek, bu borada qabul qilingan qonunchilik hujjatlari orqali ham ularning jamiyatdagi o'рни va nufuzi yana bir bor belgilab qo'yildi. Ehtimol, amaliyotda ko'zga tashlanmaydigan yoki hali o'z yechimini topmagan ayrim muammolar uchrab turibdi. Lekin, aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish hamda davlatimizning chekka hududlarida, ayniqsa qishloq joylarda yashovchi aholining ongida shakllangan salbiy fikrlarni targ'ibot ishlarini olib borish orqali bartaraf etish imkoni paydo bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Xotin qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun
2. "xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun

3. Inson huquqlari bo'yicha o'zbekiston respublikasi milliy markaz rasmiy veb-sayti "jahon bankining "ayollar, biznes va qonun" indeksida o'zbekiston respublikasining o'rnini yaxshilashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"qonun

4. yevropa kengashining istanbul konvensiyasi (yevropa kengashining ayollarga nisbatan hamda oilalardagi zo'ravonlik holatlarining oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiyasi

5. Ички ишлар вазирлиги: зўравонлик ҳолатлари бўйича мурожаатлар таҳлили^^-avgust 2022-yil

6. <https://adice.uz> huquqiy axborot portali

7. Pulatova sh.a, murodov a.sh zo'ravonlikdan jabrlanganlar huquqlarini himoya qilish va zo'ravonlikning oldini olish: uslubiy qo'llanma